

Journal of Social Research in Uzbekistan**ABOUT THE BARLAS OF CENTRAL ASIA****Fayyoziddin Kodirov**

Researcher

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Alankuva, Barlas, Kaltatoy, Fergana, Oratepa, Oltinjolov, Kallar, Mirza's, Amir Temur, lineage, Genghis Khan, Tashkent, Qarluq.

Abstract: The article covers the origin and history of the Barlas, their location in Uzbekistan and neighboring regions, and the path they have followed.

Received: 24.10.25**Accepted:** 25.10.25**Published:** 26.10.25**O'RTA OSIYO BARLOSLARI XUSUSIDA****Fayyoziddin Kodirov**

Tadqiqotchia

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Alankuva, barlos, kaltatoy, Farg'ona, O'ratepa, oltinjolov, kallar, mirzalar, Amir Temur, Chingizxon, Toshkent, Qarluq.

Annotatsiya: Maqola barloslarning kelib chiqishi, tarixi, O'zbekiston va qo'shni hududlarda joylashuvi, bosib o'tgan yo'lini o'z ichiga oladi.

О БАРЛАСАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**Файёзиддин Кодиров**

Исследователь

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Аланкува, Барлас, Калтатой, Фергана, Уратепа, Ольтинжилов,

Аннотация: Статья охватывает происхождение и историю барласов, их

Каллар, Мирзы, Амир Тимур, род, расположение в Узбекистане и соседних
Чингисхан, Ташкент, Карлук. регионах, а также путь, который они прошли.

Barlos, tarixning bu mashhur nomi tarix sahifalarida XIII asrda paydo bo'ldi. Chingizxon va uning avlodlari qo'shinida obro'li urug'lardan, Amir Temur va temuriylar tayanchi, qudratli turkmo'g'ul urug' konfederatsiyasi XVI asrda Movarounnahrda hokimiyatdan ayrilganidan so'ng

Hindistonda yangi sulolaga asos solib, shu yerda uch yuz yil davomida o'z hukmronligini davom ettiradi. Markaziy Osiyoda barlos urug'i o'zbek millati tarkibiga kiradi, Hindiston, Pokiston va Bangladeshda o'zlarini barlos deb atovchi guruh ro'yhatga olingan, bundan tashqari Mo'g'uliston va Xitoyning Ichki Mo'g'uliston avtonom hududlarida ham barlos-turk urug'i yashaydi. Barloslar Markaziy Osiyoda umumiy turk nomi bilan ataladi. Uning to'rt urug'i barlos, kaltatoy, musabozori va turk bo'lib, kelib chiqish asosi barloslarga taqaladi, shuningdek, bu guruh o'z tarkibiga boshqa turkiy urug'larni singdirgan. Barloslarning kelib chiqishi haqida tarixchi olimlar o'rtasida ikki xil nazariya mavjud: bir guruh olimlar barloslarni mo'g'ullarning avlodlari deb hisoblasa, boshqa bir guruh olimlar ularni turkiylardan kelib chiqqan degan g'oyani ilgari suradi.

Turkiston tarixi bilimdoni, rus tarixchisi V.V. Bartold Mavorounnahr barloslari mo'g'ul qabilasi bo'lgan, deb ta'kidlaydi. Boshqa bir tarixchi olim A. Y. Yakubovskiy ham bu an'anani davom ettirib, V.V. Bartoldning fikrini ma'qullaydi. Ingliz tilidagi manbalarda ham barloslar haqida ma'lumotlar keltirilib, ularni "mo'g'ul qabilalaridan biri" deb ta'kidlanadi. Mo'g'uliston manbasida "Mo'g'ul maxfiy xizmati "BARULAS" qabilasi oltin oilaning "nirun xalqi" ekanligini tasdiqlaydi. Ma'lumotda qayd etilishicha, "Chingizxon viloyatni o'z o'g'li Chig'atoyga berdi va Chig'atoy o'zining Nirun viloyati bilan vatanining g'arbiga ko'chib o'tdi.⁴" deb keltiriladi. Barloslarning mo'g'ul da'vosiga asos qilib Rashid ad-Dinning "Jome ut-tavorix" asari 5dan olingan va u barcha musulmon manbalar uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Muallifning o'zi esa manba qilib buyuk xoqon O'qtoy buyrug'i bilan yozilgan "Mo'g'ullarning sirli tarixi" asarini olgan. Rashid ad-Din asarda barlos, nayman, jaloir, qirg'iz kabi turkiy urug'larni ham mo'g'ul sifatida sanab o'tgan. Buning sababi bu tarixchi yuqorida sanab o'tilgan urug'larni mo'g'ulni turkiy xalqlarning siyosiy birlashmasi deb bilgan. Mustaqillik davri manbalarida ham barloslarning kelib chiqishi mo'g'ullarga borib taqalishi haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Xususan, akademik Ahmadali Asqarov "mahalliy aholi tili ta'sirida mutlaqo turkiylashdilar", - deb keltirgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqilsa, barloslarni mo'g'ullarning avlodlari deb aytish mumkin, hamda barloslar "nirun eli" hisoblanadi. Malika Alankuvadan 970-yilda Bodonjar tug'ildi, uning o'g'li Xabichu botur, uning o'g'li Menen Tudun (Dutumenen), keyingisi Xachiu tug'ildi. Xachiuning yetti o'g'li bo'lgan, ularning ikkisi Erdemtu va

Todoen katta jussali va semiz bo'lganligi uchun "barulas" deb ataladi. Bu ikki o'g'il barlos urug'i asoschisi bo'ladi. Erdemtu nabirasi Xarachar Chingizxon zamondoshi, Chig'atoy xizmatida bo'ladi va keyinchalik Movarounnahrğa ko'chadi, avlodlari turkiylashib turk-barlos deb yuritiladi. Todoen-barulas avlodlari hozirda Mo'g'ulistonda yashab kelayotgan barloslarning ajdodi hisoblanadi. Barloslarning turkiylardan kelib chiqqanligiga ishonuvchi tarixchilarga ko'ra, barloslar boshqa turkiy qabilalar, xususan, jaloyir, nayman, qirg'izlar kabi mo'g'ullar ta'siriga tushib qolgan. Keyinchalik, Movarounnahrğa ko'chishgan va qayta turkiylashishgan. Yevropalik tarixchilar Rene Grousset, Neago va B.F. Manzlar "barlos qabilasi turkiy(turk) edi", deyishadi. Barlos etnonimi kelib chiqishi haqida ham turli fikrlar mavjud. Odatiy mo'g'ulcha qarashga ko'ra "barlos" – "semiz", "kuchli" degan ma'noni bildiradi, bu ular mo'g'ul istilosidan oldingi davrda turkiy xalqlar etnonimikasida bu so'zning uchramasligini dalil qilib keltiradilar. Yana boshqa manbalarda "jasur", "lashkarboshi" ma'nolari ham bildirilgan. O'zbek ismlari kitobida "Barlos-mard, botir, sarkarda" deb yozilgan. Oxirgi tadqiqotlarga ko'ra barlos etnonimi islomdan oldingi totemistik e'tiqodga borib taqaladi, urug'-qabila o'z totemi bilan atalishi uchraydi. Shunga ko'ra, barlos-tarixan yasama so'z, qadimda ham yo'lbars ham burgut ma'nolarini bildirgan. Barloslar XIII asr boshlarida Ili daryosi bo'ylarida yashagan. Chingizxonning harbiy yurishlari davomida qabila tarix sahnasiga chiqadi. Bu davrda ularga Qorachar noyon (mo'g'ulcha Xarachar) bosh bo'ladi va mo'g'ul yurishlarida qatnashdi. Manbalarda Qorachar Chingizxonning yaqin insoni deb beriladi. Keltiriladiki, Tumnaxon (Menen Tudun) ikki o'g'li o'rtasida hokimiyatni taqsimlaydi, unga ko'ra Xaydu (Qabul) davlat boshqaruvini oladi, xonlar uning avlodidan chiqadi. Uning o'g'li Burton bahodur, keyin Yasuko bahodur va undan Temuchin keladi. Tumnaxonning boshqa o'g'li Kochuli (Xachiu)ga sipohsolorlik, harbiy soha topshiriladi, avlodlari amir unvonini oladi. Sohibqiron Amir Temur uning sakkizinchi avlodidir. 1224-yil Chingizxon davlatini to'rt o'g'liga bo'lib berarekan, barloslar Chig'atoy ulusiga kiradi. Ulus Yettisuvdan turib boshqarilgan. XIII asrning 60-yillarida Barloslar Movarounnahrğa ko'chib o'tadilar va Qashqadaryo vohasiga joylashadi. Mo'g'ul kelib chiqish tarafdorlari barloslar shu davrda turkiylashdi va islomni qabul qildilar deb hisoblaydilar. Turkiy manba bo'yicha esa, Yettisuv va Ili daryosi bo'yidagi turkiy qabilalar islomni Chingizxon hukmronligidan oldinroq qabul qilganligini aytadilar. Qashqadaryo barloslar makoniga aylanadi. XIV asr o'rtalarida Chig'atoy ulusi inqirozi boshlanadi, qudratli xon yo'qligi qabila boshliqlarini kuchaytirdi. Hokimiyati amir Qozog'on egallaydi va soxta xonlar orqali Movarounnahrni boshqarishni boshlab berdi. Bu davrda barloslar Movarounnahrning janubiy qismini nazorat qilar edi. Ichki ziddiyatlardan ustalik bilan foydalangan Amir Temur 1370-yil hokimiyatni qo'lga oladi, uning asosiy tayanchi o'zining qabilasi barloslar edi.

Bu davrda qabila saltanatning turli hududlarida yashadi, Sohibqiron o'z avlodidan bir kishini viloyatga jo'natar ekan, albatta, o'z urug'idan maxsus guruh qo'shib yuborgan, Amir Temur (1370-1405) va temuriylar (1405-1507) ma'muriy mansablarda barloslardan ishonchli foydalandilar. XVI asrda temuriylar va shayboniylar o'rtasidagi kurashda barloslar hokimiyatdan tushadi. Mag'lubiyatga uchragan Mirzo Bobur birinchi Afg'onistonga, keyin Hindistonga yo'l oldi. Bu davrda barloslarning joylashuvida urug' kelajagiga ta'sir qilgan o'zgarishlar yuz beradi, bir qismi Hindistonga Mirzo Bobur bilan va uning ortida ketdi, bir qismi asosiy shahar va madaniy markazlarni tark etib tog' va tog' oldi yerlarga ko'chadi. O'zbekiston tarixining xonliklar davrida barloslar davlatning siyosiy, madaniy, iqtisodiy hayotidan nisbatan chetda asosiy chorvachilik bilan band bo'lib o'tkazdi. XX asr boshlariga kelib Movarounnahrda ularning soni oz bo'lib qolgan, ko'plari assimilyatsiya qilingan yoki Afg'oniston, Pokiston va Shimoliy Hindistonga ko'chib ketgan. 1920-yilda barloslar deyarli faqat Samarqand viloyatining tog'li hududlarida va Shahrisabz vohasida qayd etilgan. Barloslar Hisor vodiysida ham yashagan. Ular quyidagi urug'larga bo'lingan: tolibbachcha, qo'zibachcha, po'latbachcha, axsakbachcha, ne'matbachcha, shashbachcha, kata kalhopisi, maida kalhopizi, jatta. 1920-yildagi aholini ro'yxatga olishda Samarqandviloyati barloslarining asosiy qismi Qoratepa, Magiyon-Faryob, Panjikent volostlarida 3002 kishidan iborat bo'lgan. 1924-yildagi rayonlashtirish ma'lumotlariga ko'ra, sobiq Hisor beklarida 7501, sobiq Denov beklarida 468 o'zbek barlosi yashagan. 1926-yildagi rayonlashtirish ma'lumotlariga ko'ra, Yuqori Qashqadaryoda 710 ta barlos ro'yxatga olingan bo'lib, ular Sayot, Hasantepa, Ommagon, Toshqaloq, Ayoqchi, Xonaqa, Tarag'ay qishloqlarida yashagan. Bu qishloqlarda tolibbachcha, qozibachcha, ne'matbachcha kabi qabilalar yashagan. O'zbekistonning janubiy viloyatlarida ikki xil – oltibachcha va kalxofizi bor. Oltibachiyalar olti aka-ukadan kelib chiqqanligi aytiladi. Qazibachcha, po'latbaccha, axsakbachcha, ne'matbachcha kabi urug' va qabilalar ham mavjud. Qashqadaryo havzasidan kelgan ko'chmanchilar avlodlari bo'lgan barloslarning ancha salmoqli guruhi XIX asrning birinchi yarmida shakllangan. Panjikentning sharqida, markazi Sudjin shahrida joylashgan ixcham qishloqlarguruhi. Bu qishloqning janubidagi Majiyanda hududida ular qishloq tashkil qilishgan. Chorbog', shimolda esa Aftobruyda bilan Yuqari-qishloq (turki dachalari) barloslarning qishloqlaridir. Tojikistonda 2010-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatdagi barloslar soni 5271 kishini tashkil qilgan. Farg'ona vodiysida "turk"larning barlos yana kaltatoy tarmoqlari joylashgan. Ularning Farg'ona viloyati Quvasoy, Quva, Toshloq, Andijonning Marhamat, Buloqboshi, Asaka, Qo'rg'ontepa, Xo'jaobod tumanlarida, shuningdek, Qirg'izistonning O'sh va Jalolobod viloyatlarida yashaydilar. Turk-barloslar kaltatoylar bilan birga umumiy hisobga kiritilgan. Ular 1897-yilgi aholi ro'yxatga

olishda Fargʻonada 14441 nafarni, 1926-yilda esa 24279 nafarni tashkil etgan. Bundan 20063 nafari Andijon va Fargʻonada, 4216 nafari esa Oʻsh va Jalolobodda istiqomat qilgan. Barloslar vodiyni janubiy va janubiy-sharqiy keng hududlarida joylashgan. S.S. Gubayeva taʼrifi bilan aytganda, “turklar koʻchib yurishlari davrida avvalo qoʻylarni boqish uchun qulay boʻlgan joyni tanlaganlar. Fargʻonada asosan bunday joylar ekin ekilmaydigan adir va adirol di tekislik yerlari hisoblanadi. Oʻtroqlashayotgan turklar, tabiiyki, asosan oʻzlari koʻchib yurgan joylarda oʻtroqlashganlar. Shuning uchun Fargʻona vodiyyida turk qishloqlari gʻarbdan boshlanib sharqda tugallanadigan vodiyni oʻrab turuvchi adir yonlarida joylashgan”. Xoʻjalik yuritish ularning oʻtroq joylashuviga ham taʼsir etgan. Qovunchi mahallasidan kekxa Eraliyev Oblonazar bobo barloslar Oʻratepadan boshlab Jalolobodning Suzoqigacha boʻlgan keng yerlarda joylashganligi haqida maʼlumot berib yuqoridagi taʼrifni isbotlaydi. Vodiy barloslarining barchasi oʻzlarining hozirgi yerga kelib joylashuvini Oʻratepa bilan bogʻlaydilar. Tarixdan maʼlumki, Oʻratepa Qoʻqon xonligi va Buxoro oʻrtasida talash hudud boʻlgan. 1816-yil Qoʻqon xoni Umarxon qoʻli baland kelib Oʻratepa, Jizzax hududlarini egallaydi va doimiy boʻysundirish uchun xonlik ishonchli xos aholisidan koʻchirib joylaydi. Oʻratepadan turk, oʻzbeklarning yuz urugʻi, bir qism tojiklarni xonlik ichkarisiga koʻchiradi, tojiklar va yuzlarning koʻp qismi Shahrixon qurilishida qatnashib u yerda joylashadilar. Bu koʻchganlar orasida barloslar ham boʻlgan, ularning xoʻjaligi chorvachilikka moslashganligi uchun keng hududlarga joylashgan. Yoshi ulugʻ maʼlumot beruvchilar ajdodlarining majburiy koʻchish qiyinchiliklarini eslaydilar. Marhamatlik barloslarning eslashicha, Oʻratepadan yoʻlga chiqilgach Fargʻonaning Avval qishlogʻi, Quvasoy orqali Qirgʻizistonning Uchqoʻrgʻon adirlaridan oʻtib Marhamatga kelingan. U vaqtlar Qoʻriq deb atalgan bu joylarda aholi oz boʻlib, koʻp yerlar qarovsiz toʻqay va botqoq boʻlgan. Barcha koʻchmanchi turkiylarga xos boʻlgan qabilaning urugʻ tarmoqlarga boʻlinishi barloslarda ham kuzatiladi. XX asr oʻrtalarigacha boʻlgan davrda urugʻ- tarmoqlar, shajaralar yaxshi saqlangan. Fargʻonada tarqalgan barlos va kaltatoylarda hududlar boʻyicha turli tarmoqlar bor. Ayrimlari, tarmoq atalishini saqlagan, ayrimlari barlos nomini, yana kimlar “turk” etnonimini.

Vodiyga koʻchirilgan yuz qabilasining bir qismi barloslar bilan chorva xoʻjaligi bilan shugʻullanib oʻzlarini turk deb hisoblaydilar. Erta oʻtroqlashgan barloslarda urugʻ-tarmoq nomlari unutilishi tezlashgan, chorvachilikni uzoq davom ettirgan guruhlar esa saqlab qolgan. Barlos tarmoqlari: chollar, qoralar, yapoloqbosh, qingʻir, sipolik, kallar, barlos, nonyemas, oqqulu, gara-guru, Yomonturk, koʻkkallapoʻsh, olajuluk, Yetmish-Mergan.

Kaltatoylar: qora-qoʻnos, oltinjilov, oltinsumak, quva qalmoq, suhanlar, kalaxcha, qissakoʻz, jindilar, gajlar, goʻrgabotmas, tuyachi, keldiboy, bangilar, chovkar. Yana oʻzbeklarning

yuz urug'idan mirzalar, qoraqo'yluq, norbo'ta, olabaytal, qoramo'yin tarmoqlari o'zlarini turk-barloslarga bog'laydilar (Yuqoridagi to'plarfaqat Farg'ona vodiysiga tegishli). To'plar asoschi otalar otlari bilan, Yetmish, Mergan, Norbo'ta, ularning laqablari bilan kallar, yapoloqbosh, chol, qissako'z, alohida belgilari bilan, ko'k kallapo'sht, kasb-ishlari bilan, bangilar, jinnilar atalganlar. Ba'zilar urug' otining o'zini saqlab qolganlar (barloslar). Quva qalmoq asli qu-qalmoq bo'lib, talonchi qalmoqlarni dog'da qoldirgani uchun shunday atalgan. Lekin kuzatishimiz mumkinki, tarmoqlar nomlari uzoq vaqtga boribtaqalmaydi, ko'chishlar davrida shakllangan. Umarxon davrida ko'chirilgan turk-barlos va kaltatoylar O'rtatepaning Soybo'yi, Qatortol, O'sma, Zangzor qishloqlaridan yashaganliklarini eslaydilar. Barloslar undan oldin yashagan manzillarini Samarqand atroflari, kaltatoylar esa Toshkent Sayram orasini ko'rsatadilar. Toshkentni turklarning vatani, shu jumladan kaltatoylarning vatani deb bilish keng tarqalgan. Hozirgi kunda barloslar o'zbek millatining tarkibiy qismi hisoblanadi va o'zlarini o'zbek deb taniydi. Ularning xotiralarida uzoq shonli tarix, ota-bobolari bosib o'tgan qiyinchilik kunlari xotiralar saqlangan. Yana barloslar orasida shajaralar yaxshi saqlanib qolgan, u orqali geneologiyani qiziq ma'lumotlarini o'rganish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 3. М. Бобур. Бобурнома. Ташкент. Шарқ.2008
2. У. Абдуллаев. Фарғона водийида этнослараро жараёнлар. (XIX-XXаср бошлари) Янги аср авлоди 2005.
3. С. С. Губаева Этнический состав населения Ферганы в конце XIX- начале XX век (Этнокультурные процессы) Ташкент 1991.
4. Бекжан Ташполотов. Кыргызтандагы турк уруулары (Санжыра). Жалал-абад-2021
5. Б.Х. Кармышева Очерки этнической истории южный районов Таджикистана и Узбекистана. Москва. 1976.
6. Қодиржон Тошболтаев. Марҳамат: қишлоқларимиз ҳаётидан баҳс
7. Тоиржон Муллаев. Шукурмерган қишлоғига бир назар. Фарғона. 2021
8. А. Асқаров. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Ўзбекистон. 2007
9. Мирзо Улуғбек.Тўрт улус тарихи. Чўлпон. 1994
10. Абулғозий. Шажараи турк. Чўлпон. 1992
11. Аблат Хўжаев. Фарғона водийси тарихий манбаларда. Фарғона-2013.
12. Қахрамон Ражабов. Алп Эр Тўнга. Ўзбекистон. 2014.
13. Насимхон Рахмон. Турк ҳоконлиги. Абдулла Қодирий. 1993

14. Арқанакун эпоси ва унинг тарихий илдизлари. Бухоро-2021. 41-бет
15. Тўра Нафасов. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. Ўқитувчи.1988
16. Қирғиз ва Қирғизистон тарихи бўйича материаллар. М., 1973, С. 210.
17. К. Кубаков Юқори Қашқадарё ўзбекларининг айрим қабила гуруҳлари ҳақида (19-асрнинг 2-ярми — 20-аср бошлари) // Ўзбеклар ҳаёти ва маданиятини этнографик ўрганиш. Тошкент, 1972 йил.
18. В. Бушков Шимолий Тожикистон аҳолиси: шаклланиши ва кўчирилиши. М., 1995, С. 67.
19. Г. К.Ходжаёва Ўзбекларнинг қабилавий бўлинишли дерматоглифлари
20. Раҳмонали Муллаев. Шукурмерган тарихига бир назар. Фарғона-2020
21. М.Воҳобов Ўзбек сотсиалистик миллати.. Уздавнашр. 1960 й.